



**O‘ZBEK TILIDA EMOTSIONAL-EKSPRESSIV BO‘YOQDORLIK VA
UNING USLUBIY IFODA IMKONIYATLARI**

Nazarova Sabrina Zafarjon qizi
NamDU Filologiya fakulteti o‘zbek tili yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi emotsional-ekspressiv bo‘yoqdorlikning leksik va uslubiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Kitobiy va og‘zaki so‘zlashuv uslublarida so‘zlarning ma’no, ifoda va bo‘yoq jihatidan farqlanishi yoritiladi. Shuningdek, ijobiy va salbiy emotsional bo‘yoqdorlikni ifodalovchi leksemalar, ularning matndagi vazifasi hamda badiiy ifodadagi o‘rni misollar asosida ko‘rsatib beriladi. Maqolada emotsional-ekspressiv leksikaning uslublararo qo‘llanish imkoniyatlari va u orqali nutqning ta’sirchanligini oshirish yo‘llari ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: emotsional-ekspressiv bo‘yoq, uslubiy xoslangan leksika, og‘zaki so‘zlashuv uslubi, kitobiy leksika, badiiy ifoda, ijobiy va salbiy baho, neytral qatlam.

Annotation: This article analyzes the lexical and stylistic features of emotional-expressive coloring in the Uzbek language. It explores the semantic and stylistic distinctions between literary and spoken styles. The study illustrates examples of lexemes expressing positive and negative emotional coloring, their functions in the text, and their role in artistic expression. The paper also discusses the interstylistic use of emotionally expressive vocabulary and its contribution to enhancing the expressiveness of speech.

Keywords: emotional-expressive coloring, stylistically marked vocabulary, spoken style, literary vocabulary, artistic expression, positive and negative evaluation, neutral layer.

Аннотация: В данной статье анализируются лексические и стилистические особенности эмоционально-экспрессивной окраски в узбекском языке. Рассматриваются различия в значении и выражении слов в книжном и разговорном стилях. Приводятся примеры лексем с положительной и отрицательной эмоциональной окраской, их функции в тексте и роль в художественном выражении. Также раскрываются возможности межстилевого использования эмоционально-экспрессивной лексики и её влияние на выразительность речи.

Ключевые слова: эмоционально-экспрессивная окраска, стилистически маркированная лексика, разговорный стиль, книжная лексика, художественное выражение, положительная и отрицательная оценка, нейтральный слой.

Kirish. Til inson tafakkurining mahsuli bo‘lib, uning eng asosiy ijtimoiy aloqa vositasidir. Har bir xalqning tili o‘z milliy ruhini, dunyoqarashini va madaniy qadriyatlarini ifoda etadi. Insonning ichki kechinmalari, his-tuyg‘ulari, ruhiy holati hamda estetik munosabatlari, avvalo, tilda o‘z aksini topadi. Shu boisdan ham tildagi



FRANCE

har bir soʻz nafaqat nominativ maʼnoga ega, balki u maʼlum darajada emotsional va ekspressiv boʻyoqni ham oʻzida mujassam etadi. Bu boʻyoqdorlik nutqqa taʼsirchanlik, jonlilik, obrazlilik baxsh etadi va uni estetik jihatdan boyitadi.

Oʻzbek tilining leksik boyligi, undagi soʻzlarning maʼno qatlamlari va uslubiy imkoniyatlari, ayniqsa, emotsional-ekspressiv boʻyoqdorlik nuqtayi nazaridan oʻrganilishi muhimdir. Chunki soʻzning emotsional va ekspressiv xususiyatlari insonning subʼektiv munosabatini ifodalashda, shuningdek, tinglovchi yoki oʻquvchiga kuchli taʼsir oʻtkazishda muhim vosita hisoblanadi. Tilshunoslikda bu hodisa faqat leksik sath bilan cheklanmay, balki uslubiyat, nutq madaniyati, psixolingvistika kabi sohalar bilan ham bevosita bogʻliqdir. Oʻzbek tili leksikasida boʻyoqdor va boʻyoqsiz soʻzlarning mavjudligi tilning ijtimoiy-funksional tabiatini koʻrsatadi. Boʻyoqsiz (neytral) soʻzlar odatda maʼnoni xolis tarzda ifodalasa, boʻyoqdor soʻzlar maʼno bilan bir qatorda soʻzlovchining munosabatini ham bildiradi. Bu soʻzlar ijobiy yoki salbiy baho kasb etishi mumkin: masalan, zebo, malohatli, shafqatli kabi soʻzlar ijobiy, makkor, tirrancha, murtad kabi soʻzlar esa salbiy emotsional boʻyoqqa ega. Shuningdek, oʻzbek tili uslublari — kitobiy, ogʻzaki soʻzlashuv, badiiy, ilmiy, publitsistik, rasmiy uslublari — har biri oʻziga xos leksik vositalarga tayanadi. Ayniqsa, ogʻzaki va badiiy nutqda emotsional-ekspressiv leksika keng qoʻllanilib, ularning taʼsirchanligini oshiradi.

Badiiy matnda soʻzning boʻyoqdorligi estetik maqsadni amalga oshirishga xizmat qiladi, soʻzlashuv uslubida esa tabiiylik va jonlilikni taʼminlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda oʻzbek tili taraqqiyoti, uning badiiy, publitsistik va ogʻzaki nutqdagi imkoniyatlarini tahlil etishda emotsional-ekspressiv boʻyoqdorlik masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Har bir soʻzning uslubiy qiymatini aniqlash, ularning matn ichida qanday emotsional yuklama kasb etishini oʻrganish — tilshunoslikning dolzarb yoʻnalishlaridan biridir. Ushbu maqolada oʻzbek tilidagi emotsional-ekspressiv leksikaning mazmuniy va uslubiy xususiyatlari, boʻyoqdor va boʻyoqsiz soʻzlarning farqlanish mezonlari, ularning turli uslublarda qoʻllanish holatlari, shuningdek, soʻz orqali nutqning estetik taʼsirchanligini oshirish imkoniyatlari yoritiladi.

Tahlillar va natijalar. Til va nutq hamisha bir — biridan farqlanadi, ikkalasi bir — biriga qarama-qarshi holda yashaydi. Tilning butun imkoniyatlari nutq orqali yuzaga chiqadi, reallashadi. SHunga koʻra nutq bir necha turga boʻlinib ketadi. Inson yer yuzining sarvari, koinotning gultoji sifatida oʻzining atrofidagi voqea — hodisalarga, jarayonlarga munosabat bildiradi. Boshqalar bilan muomalaga kirishgan paytida oʻzining dilidagi his—tuygʻularini, shodlik va quvonchlarini, orzu—umidlarini, gʻazab va nafratlarini ayrim leksemalar yordamida yuzaga chiqaradi. Masalan, chiroyli, goʻzal leksik birliklari oʻrnida zebo, barno, bashang, koʻhlik kabi leksemalar qoʻllaniladi. Bunda ifodalanayotgan obyektning nihoyatda ortiq belgiga ega ekanligi koʻrsatilyapti. SHu asosda tildagi soʻzlar emotsional — ekspressiv boʻyoqdor va boʻyoqsiz soʻzlarga

FRANCE

bo'linadi. Emotsional —ekspressiv bo'yoqsiz so'zlarda ijobiy yoki salbiy baho, ya'ni so'zlovchining munosabati ifoda etilmaydi. Ko'proq neytral qatlamga oid bo'lgan so'zlarda bu holatni kuzatish mumkin. Misol uchun kitob, maktab, yer, suz, ota, ona bilan, yordam, kel, bor men, sen, u, doimo, bugun, kecha, va, hamda, faqat kabi so'zlar har qanday bo'yoqdor holda tilda ishlatiladi.[1.13-18-b.]

Emotsional — ekspressiv bo'yoqdor so'zlarda esa obyektga baho berilayotganda, albatta, maxsus munosabat bildiriladi. Uning belgilaridan biri kuchaytiriladi, ifodada bo'yoq, rang — baranglik yuzaga keltiriladi, nutqning ta'sirchanligi oshiriladi. Masalan, ketdi deyish o'rniga g'izilladi, yedi deyish o'rniga chimchiladi, paqqos tushirdi deb aytsak, ifoda kuchayapti, o'ziga xos tasvir paydo bo'lyapti.

Tildagi emotsional—ekspressiv bo'yoq to'rt xil yo'l bilan amalga oshiriladi.

1. Leksik usul. Leksemaning o'zi yordamida bo'yoqdorlik ifodalanadi: satang, sanqi, daho, rahnamo, valakisalang.

Ular ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin. a) ijobiy: tamtam, malaksiymo, gulbadan, hassos, do'ndirmoq, so'lqildoq;

b) salbiy: makkor, ko'rnamak, mishiqi, murtad, tirrancha.

Bo'yoqdor so'zlar asosan og'zaki va badiiy uslubda faol ishlatiladi. Misol uchun J.Bokkachodan tarjima qilgan X. Mirmuhammedov shunday yozadi: «Dilnavoz xonimlar! Odamzot taxayyul qilgan har qanday ish jamiki mavjudotning ibtidosini bunyod etgan parvardigorning yo'lida bajarilmog'i kerak. Zero, uning nomi purkaromat va muqaddasdir» Parchadagi dilnavoz, taxayyul. parvardigor, purkaromat so'zlarida bo'yoqdorlik mavjud.SHu asarda dilrabo, shoista, malohatli, maftunkor, jozibador, purshafqat, purlatofat, sohibiltifot, navnihol, lobar, laziza kabi so'zlar ham ishlatilgan va ular o'ziga xos bo'yoqdorlikni tashkil etgan.[2.82-85-b.]

2. Metaforik usul. Bu usulda so'zning ko'chgan ma'nosidan ustalik bilan foydalaniladi. Vaqillamoq, akillamoq, vishillamoq, eshak, it, to'ng'iz kabi so'zlar ko'chma ma'noda ishlatiladi. Ichib olgan bu eshak! (Q.Hoshimov)

3. Affikslar orqali. Bu usulda- xon, -jon, -oy, -gina, -kino, -voy, -loq, -kay qo'shimchalari o'zakka qo'shilib keladi. Masalan: Tohirjon, buvinam, Oqilaxon, bo'taloq, do'ndiqcha, bolakay, qizgina kabi.

4. Kontekstual usul. Neytral leksikga oid bo'lgan so'z matn ichida bo'yoqqa ega bo'lib qolishi mumkin. Masalan: Ha, sher, va'daga vafo qilmadilar — ku!

Til kishilar o'rtasidagi asosiy aloqa vositasi, kommunikatsiya turi sifatida asrlar davomida shakllanib, funksional jihatdan alohida uslublarda ishlatilish uchun xoslanib qolgan. Bunda bir uslubda ishlatish emas ko'rinadi. Masalan: rasmiy uslubda — O'qituvchi, og'zaki so'zlashuv uslubida — domla, muallim, publitsistik uslubda qalb me'mori, kishi ruhining injeneri va hokazo. Ko'rinib, turibdiki, har bir uslub o'zining ifoda vositalariga, imkoniyatlariga ega. SHunga ko'ra o'zbek tilidagi so'zlar ikki guruhga bo'linib ketadi.[3.64-69-b.]



1. Uslubiy xoslanmagan (stillararo, neytral leksika). Barcha uslublarda bir xil ishlatilaveradigan vatan, bola, uy, yurmoq, besh, olti, biz, ravshan kabi so'zlar neytral qatlamni tashkil qiladi.

2. Uslubiy xoslangan (stilistik) leksika esa o'z chegarasiga, doirasiga ega bo'ladi. U uch (ba'zan beshga bo'lib yuborishadi) turga bo'linadi.

a) kitobiy leksika. Uslubiy xoslangan leksikaning bu turi yozma nutq va orfografik me'yorlar bilan chambarchas bog'langan bo'ladi. O'z navbatida u ham uchga bo'linib ketadi.— publitsistik uslubga oid so'zlar: sarlavha, maqola, saylovoldi, do'ndirmoq, ado qilmoq, ilmiy uslubga oid so'zlar: tenglama, magniy, oksidlanish, reagent kabi. Aytib o'tish joiz ilm — fanning har bir yo'nalishi o'z terminologiyasiga ega. — rasmiy uslubga oid so'zlar: ko'chirma, ariza, qaror, qonun. ijro, ozod qilmoq, band etmoq, ozod qilmoq. Kitobiy so'zlarda qat'iylik, aniq bir me'yorga solinganlik, shuningdek, ijobiy va salbiy bo'yoqdorlik mavjud bo'ladi.[4.87-92-b.]

Og'zaki so'zlashuv uslubi o'zining evfemizmlarga, disfemizmlarga, vulgar so'zlarga boyligi, dialektizmlardan ko'plab foydalanilishi kabi xususiyatlari bilan uslubiy xoslangan leksika ichida alohida ajralib turadi. Unga tegishli bo'lgan so'zlar tabiiy, ishlov berilmagan, ma'lum bir me'yorga solinmagan bo'ladi. Masalan, ming'illamoq, bobillamoq, chipta, shayton arava, hosilot va shu kabi. [5.54-59-b.]

Og'zaki so'zlashuv uslubi leksikasida: erkaklar nutqi, ayollar nutqi va bolalar nutqi alohida ajralib turadi. Masalan, ayollar nutqiga xos bo'lgan. Kekkamajon, poshshaxon, talamoq, yumdalamoq, vakkillamoq erkaklar nutqida akang geroy, gartkam, ulfat, oqil o'g'il bola gap kabi so'zlar mavjud. So'zlashuv nutqida ham o'zbek tiliga o'zlashib ulgurmagan mamashka, papashka, mushayt qilmoq, trezviy kabi leksik birliklar ham uchraydi. Qaqajon, jo'jxo'roz, mullajiring, ko'ki kabi so'zlar ham og'zaki so'zlashuv uslubiga xos leksemalar sanaladi. Badiiy uslub ham o'ziga xos leksik birliklarga ega bo'ladi. Baxsh etmoq, dilorom, ohujon, g'am-g'ussa kabi so'zlar bunga misol bo'la oladi. Badiiy uslubga xos so'zlar o'zining ta'sirchanligi, poetik jo'shqinlikka egaligi, bo'yoqdorligi bilan alohida ajralib turadi. Turli xil metafora, metanimiya, sinikdoxa, epitet, ironiya, antifraz, sarkazm, perifraz, litota, allegoriya va boshqa tasvir vositalaridan badiiy uslubda keng foydalaniladi. Qora oltin - neft, mo'yqalam sohiblari -rassomlar, dala malikasi - makkajo'xori kabi tasviriy ifodalarga ham badiiy uslubda duch kelamiz. Badiiy uslubga hos bo'lgan leksika ichida she'riy asarlarda ishlatilgan so'zlar alohida diqqatga sazovor. Masalan, R.Parfining quyidagi she'riga e'tibor bering:[6.78-85-b.]

Yoshlik — zangor fasl, kechdi, sargpardi, To'kildi u xazon bilmas barg rezon, qora sovuqlarga otib yubordi, SHamollar poyida sinmoqda xazon. Yoshlik —zangor fasl, kezdi, sar pardi... Bu parchadagi zangor fasl, sar pardi, barg rezon, qora sovuq so'zlari badiiy uslubga xos bo'lgan xossalarni o'zida mujassam etgan, ya'ni ko'chma ma'nolarda ishlatilyapti. Badiiy uslubga xos so'zlarning xususiyatlari juda ko'p. Ularni

FRANCE

tadqiq qilish, tasniflash o'zbek tilining cheksiz ifoda imkoniyatlarini namoyon qiladi, uning ochilmagan qirralarini bizga ochib beradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, o'zbek tili leksik tizimi o'zining nihoyatda boy, rang-barang va emotsional jihatdan sarmazmunligi bilan ajralib turadi. Tilning bunday imkoniyatlari, avvalo, so'zlarning emotsional-ekspressiv bo'yoqdorligi orqali namoyon bo'ladi. Har bir so'z nafaqat ma'no bildiradi, balki so'zlovchining munosabatini, hissiyotini va bahosini ham ifodalaydi. Shu jihatdan emotsional-ekspressiv bo'yoqdorlik tilning estetik, badiiy va kommunikativ qudratini belgilovchi muhim vositadir.[7.42-47-b.]

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, bo'yoqdor so'zlar ko'proq og'zaki so'zlashuv va badiiy uslublarda faol qo'llaniladi. Chunki bu uslublarda insonning ichki kechinmalarini, hissiy holatini, ruhiy holatini ifodalashga yo'naltirilgan. Kitobiy leksika esa rasmiy, ilmiy va publitsistik uslublarda aniq, lo'nda va me'yoriy ifodani ta'minlaydi. Tilning har bir uslubi o'ziga xos emotsional-ekspressiv vositalar orqali nutqni yanada ta'sirchan va jonli qiladi. Shuningdek, o'zbek tili leksikasida ijobiy va salbiy bo'yoqdorlik mezonlari orqali insonning voqelikka munosabati aks etadi. Ijobiy so'zlar mehr, hurmat, go'zallik va samimiyatni ifodalasa, salbiy bo'yoqdor so'zlar g'azab, nafrat, tanqid yoki istehzo ma'nosini bildiradi. Bu esa tilning inson ruhiy olamini ifodalashdagi beqiyos imkoniyatlarini ko'rsatadi.

Umuman olganda, o'zbek tilidagi emotsional-ekspressiv leksika nafaqat badiiy asarlarda, balki kundalik nutqda ham so'zlovchi shaxsning hissiy munosabatini ochib beruvchi kuchli ifoda vositasi sifatida xizmat qiladi. Shuning uchun bu hodisani chuqur o'rganish, tahlil etish va ta'lim jarayonida o'rgatish o'zbek tilshunosligining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

References/ Литература/Adabiyotlar:

1. Tursunov U., Sh. Shoabdurahmonov, A. Hojiyev va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. — Toshkent: O'zbekiston, 1992. — 165–173-betlar.
2. Shoabdurahmonov Sh., Hojiyev A., Rasulov R. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. — Toshkent: O'qituvchi, 1984. — 135–137-betlar.
3. Begmatov E., Ibrohimov A., Mahmudov N. O'zbek tili leksikologiyasi. — Toshkent: Fan, 1981.
4. O'rinboev B. O'zbek so'zlashuv nutqi. — Toshkent: Fan, 1979.
5. Begmatov E. va boshqalar. O'zbek nutqi madaniyati ocherklari. — Toshkent: Fan, 1988.
6. Shomaqsudov A., Rahmatullayev Sh. va boshqalar. O'zbek tili stilistikasi. — Toshkent: O'qituvchi, 1987.
7. Rasulov R. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.